



Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal

Jurnalning bosh sahifasi: <https://universaljurnal.uz>

Universal International Scientific Journal

e-ISSN: [3060-1540 \(online\)](https://doi.org/10.30601/2541-4140)

Year: 2024 Issue: 1 Volume: 9

Published: 18.12.2024 <https://universaljurnal.uz>

International indexes

GOOGLE SCHOLAR

CROSSREF (OAK BAZA)

ZENODO

OPEN AIRE

EUROPUB

RESEARCHGATE (OAK BAZA)

SJIF



Qodirova Malohat Komiljonovna

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar Vazirligi
Andijon akademik litsey informatika fani o'qituvchisi
Uzbekistan

TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA AXBOROT TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Abstract: This article presents the possibilities of using modern pedagogical technologies and information technologies in improving the quality of education, their advantages. Modern pedagogical and information technologies play an important role in improving the quality of education. Today, the Internet, multimedia resources, digital platforms and various interactive tools are widely used in the educational process to effectively organize the learning process of students. These technologies create opportunities for improving communication between teachers and students, as well as individualizing education.

Keywords: Innovative technology, modeling, visualization, interactive.

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim sifatini oshirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalari va axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari, ularning afzaliklari keltirib o'tilgan. Zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari ta'lim sifatini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Bugungi kunda ta'lim jarayonida internet, multimedia resurslari, raqamli platformalar va turli interaktiv vositalar o'quvchilarning bilim olish jarayonini samarali tashkil etishda keng qo'llanilmoqda. Bu texnologiyalar o'qituvchi va

o'quvchi o'rtasidagi kommunikatsiyani yaxshilash, shuningdek, ta'limni individualizatsiya qilish imkoniyatlarini yaratadi.

Kalit so'zlar: Innovatsion texnologiya, modelashtirish, vizuallashtirish, interaktiv.

Аннотация: В данной статье упоминаются возможности использования современных педагогических технологий и информационных технологий в повышении качества образования и их преимущества. Современные педагогические и информационные технологии играют важную роль в повышении качества образования. Сегодня в образовательном процессе широко используются Интернет, мультимедийные ресурсы, цифровые платформы и различные интерактивные инструменты для эффективной организации процесса обучения студентов. Эти технологии создают возможности улучшить общение между учителем и учеником, а также индивидуализировать обучение.

Ключевые слова: Инновационные технологии, моделирование, визуализация, интерактив.

Language: Uzbek

Citation: Kadirova, M. (2024). OPPORTUNITIES OF USING MODERN PEDAGOGICAL AND INFORMATION TECHNOLOGIES IN IMPROVING THE QUALITY OF EDUCATION. Universal International Scientific Journal, 1(9), 164–167. Retrieved from <https://universaljournal.uz/index.php/jurnal/article/view/1383>

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14528922>

Ta'lim tizimida bilim darajasini shakillantirish, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda olib borish muhim vazifalardan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 6 iyulda qabul qilingan. Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot kommunikatsion texnologiyalarni joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarori axborotlashtirishning milliy tizimini shakillantirish, barcha sohalarda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish va undan foydalanish jahon axborot resurslaridan bahramand bo'lishni kengaytirishga zamin yaratadi[2]. Zamonaviy texnologiyalarning rivojlanish holati birinchi navbatda jamiyatning intellektual salohiyatiga,

jumladan, ta'lim sohasining rivojlanishiga bog'liq.

Ta'limning mazmuni va sifati masalalari jamiyatda ustivor yo'nalish sifatida qaralmoqda. Dunyoning rivojlangan va rivolanayotgan mamlakatlarida ta'limni axborotlashtirishga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda.

Zamonaviy axborot texnologiyalari, o'quv-tarbiya jarayonlarining barcha bosqichlarini jadallashtiradi. Bunda axborot texnologiyalarida foydalanish asosida ta'lim sifati va samaradorligini ortishi o'quvchilarning bilish faoliyati oshadi, fanlararo aloqalarini chuqurlashganini kuzatish mumkin. Axborot texnologiyalarini joriy etish orqali ta'lim sifati va samaradorlikka erishiladigan metodik maqsadlarga:

- o'qitish jarayonini individuallashtirish va differensiyalash;

- o'z-o'zini nazorat qilish - o'quv materialini o'zlashtirish jarayonida mashq qilish va mustaqil o'zlashtirishni tashkil etish;

- o'quv vaqtini tejash;

- o'quv axborotlarini kompyuter orqali vizuallashtirish;

- o'rganilayotgan hodisa va jarayonlarni modellashtirish;

- kompyuterda laboratoriya mashg'ulotlarini bajarish;

- o'qishga qiziqishni ortirish;

- optimal qaror qabul qilish malakasini shakllantirish - o'quvchida axborot madaniyatini shakllantirishni kiritish mumkin[4]. Axborot texnologiyalari, zamonaviy texnologiyalar innovatsion taxnologiyalarni dars jarayonida va darsdan tashqarida qo'llash dars samarasini yanada oshiradi. Zamonaviy o'qituvchi ta'lim - tarbiya jarayonida innovatsion usullardan foydalana bilishi va amalga oshira olishi lozim. Bu jarayonda o'qituvchiga qo'yiladigan talablar:

- innovatsion texnologiya tushunchasini, uning mazmun mohiyatini bilishi;

- innovatsion texnologiyalarning ta'lim maqsadini amalga oshirishdagi o'rni va rolini bilishi;

- innovatsion texnologiyalarni fanlar bo'yicha qo'llash printsiplarini bilishi; - ta'limiy va ishchanlik o'yinlarini bilishi;

- muammoli rivojlantiruvchi ta'lim metodlarini bilishi;

- o'quvchilarning mustaqil faoliyatlarini tashkil qilish va ta'minlash yo'llarini bilishi;

- o'quvchilarning o'z ustida mustaqil ishlash mahoratini oshirish usullarini egallashi;

- ko'rgazmali o'qitish usullarini bilishi va egallashi;

- ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llab, na'munaviy o'quv mashg'ulotlarini o'tishi;

- ta'lim-tarbiyaning faollashtiruvchi usullarini bilishi va egallashi;

- uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to'liq foydalana olishi lozim. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritishdir[3].

Interaktiv (ingl. Interaction-o'zaro ta'sir) metodlar - bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi[1]. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchilarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi. Zamonaviy insonning o'qish jarayoni faqat, bog'cha maktab, litsey yoki kollej, oliy o'quv yurti bilan tugamaydi. Inson butun umr davomida ta'lim olishi zarur yani ta'lim uzluksiz bo'lishi kerak. Malaka oshirish institutlarida ham o'qituvchilar o'qib, izlanib, bilimlarini yangiliklar bilan boyitib bormoqdalar.

Hozirda yangi pedagogik texnologiyalar, axborot texnologiyalariga doir bir necha usullarni ko'rsatish va ularni darsda ijobiy qo'llash bo'yicha metodik tavsiyalar berish, ushbu texnologiyalarni amalda qo'llay olishga yo'naltirilmoqda. Oliy ta'limda - elektron darslik - multimediya tizimlari - avtomatik loyihalash - elektron aloqa - ovozli ekelektron aloqa - elektron doska - interaktiv doska - internet tarmoqlari va texnologik vositalar

orqali bilimlari boyitib berishga harakat qilinmoqda. Zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga joriy etish ko'llamini kengaytirish, bu yo'nalishda ilg'or tajribalarni tadbiq qilish, bu sohada har bir fan

bo'yicha rejalarni aniq tuzish, tinglovchilarni elektron darsliklar bilan taminlash, ularga har bir fan yuzasidan uslubiy va metodik tavsiyalarni yetkazib berish keng yo'lga qo'yilmoqda.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА

1. O.Hasanboyeva, J.Hasanboyev, N.Hamidov-Pedagogika tarixi. Toshkent.1997y
2. X.Ibragimov,SH.Abdullayeva-Pedagogika nazariyai.Toshkent.2008 yil
3. Борисенко ИА. Из опыта преподавания информатики в начальной школе / Материалы научно-практической конференции. - Рубцовск: РИО, 2004. - сл 18 -120.
4. Веряев А.А. Возрастание роли методологического знания в педагогике и методологической культуры педагогов в условиях перехода общества к информационной стадии развития // <http://www.ph.bstk.ru/library/21.htm> (январь, 2005).